

**BANKLARNI AHOLIGA CHAKANA BANK XIZMATLARINI
KO'RSATISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

Nastinova Gulnoza Sirojiddin qizi

Toshkent moliya instituti, 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada banklarni aholiga chakana bank xizmatlarini ko'rsatish amaliyotini takomillashtirish, Tijorat banklarida chakana xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish, ulargi xorij tajribasini joriy etish, Bugungi globallasuv bank xizmatlarining sifatiga va tezligiga ega bo'lishni talab etilishi, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalari haqida ma'lumotlar berilgan.*

ABSTRACT: *In this article, the improvement of the practice of banks in providing retail banking services to the population, the development of retail services in commercial banks, the introduction of their foreign experience, the demand for the quality and speed of banking services in today's globalization, information about transaction banking financial operations. given*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье рассматривается совершенствование практики банков по оказанию розничных банковских услуг населению, развитие розничного обслуживания в коммерческих банках, внедрение зарубежного опыта, требования к качеству и скорости банковского обслуживания в современных условиях. глобализация, информация о транзакционных банковских финансовых операциях.*

KALIT SO'ZLAR: *Tijorat banklari, masofaviy texnologiyalar, chakana xizmatlar, informatsion, tranzaksion, chakana kreditlar.*

KEY WORDS: *Commerce, Remote technologies, retail services, information, transaction.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Коммерция, Дистанционные технологии, розничные услуги, информация, транзакция.*

KIRISH.

Bugungi kunda moliya bozorida yuzaga kelayotgan sogʻlom raqobat muhitini shakllantirish hamda mijozlar uchun qulayliklarni yanada kengaytirish maqsadida banklarimiz oʻzida bir qator yangi loyihalar va xizmat turlari yoʻlga qoʻyilgan. Jumladan, bank va bank filiallari tasarrufida tashkil etilgan chakana kassalar orqali aholiga barcha turdagi kommunal va boshqa toʻlovlarni qabul qilish, omonatlarga pul mablagʻlarini jalb etish, xalqaro pul oʻtkazmalari xizmatlari, valyuta ayirboshlash kabi xizmatlar koʻrsatib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR VA METODOLOGIYA: Tijorat banklarida chakana xizmatlar koʻrsatishni rivojlantirish, ulargi xorij tajribasini joriy etish bilan bogʻliq muammolar koʻplab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Ikramova N.R. , Trofimov D.V. , Nikonorov V.V. , Bekchanov M., Abduraxmanov R. , Omonov A.A. , Aliqoriev O. va boshqalar bugungi kunda tijorat banklari tomonidan koʻrsatilayotgan koʻplab chakana xizmatlarning oʻziga xos jihatlari, ularning rivojlanishidagi mavjud muammolarni tadqiq etganlar. Xususan, A.S. Goncharuk tomonidan “Chakana bank xizmatlari – bu aholiga tijorat bilan bogʻliq boʻlmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlanini qondirish uchun standartlashtirilgan bank maxsulotlariga asoslangan xizmatdir” degan mualliflik taʼrifi shakllantirildi. Bank xizmatlarini yoʻnaltirish maqsadi va texnologiyasi nuqtai nazaridan qaraydigan boʻlsak, bizning fikrimizcha, «Bank chakana xizmatlari bu- jismoniy shaxslarning aniq bir bank xizmatlariga boʻlgan shaxsiy yoki oilaviy ehtiyoj, xoxish va talablarini qondirish uchun tijorat banklari tomonidan taklif etiladigan, tijorat faoliyatiga yoʻnaltirilmaydigan bank xizmatlari yigʻindisidir» .

NATIJA VA MUHOKAMA.

Bugungi globallashuv bank xizmatlarining sifatiga va tezligiga ega boʻlishni talab qilmoqda. Chakana xizmatlarning oʻrni bugungi kunga kelib mobil ilovalar

egallab bormoqda. Chakana bank xizmatlarini mohiyatan tasniflaydigan bo'lsak, bu asosan banklar tomonidan to'lovlarni amalga oshirishda ma'lum haq evaziga to'lovlarni amalga oshirish uchun ko'rsatiladigan xizmatlar hisoblanadi. Bu xizmatlardagi bugungi kundagi asl muammo navbatlar hisoblanadi. Bank mobil ilovalari bu navbatlarni va xodimlarga qo'shimcha haq to'lashni kamaytiradi

Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish turli bank operatsiyalarni masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefondan foydalanish kifoya.

Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Masofadan xizmat ko'rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin:

- informatsion;

- tranzaksion. Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta'minlanadi.

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan


ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni
1 yanvar holatiga



- hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar;
- hisobvarag'idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraq balansi;
- kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma'lumot olish.

Yuqoridagi jadvalda 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardagi qariyb 10 yillik statistika asosida foydalanuvchilar ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Bundan anglash mumkinki, banklardagi aholiga xizmatlar, xususan, chakana xizmatlar amaliyoti online ravishda ham yildan yilga oshib borayotgan ko'rsatkichlarda aniqlanmoqda.

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.

Chakana kreditlar

Mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan 2023 yilning dastlabki 9 oyi davomida 75,1 trillion so'mlik chakana kreditlar ajratilgan.


Jismoniy shaxslarga ajratilgan jami kreditlarning 40,2 foizi avtokreditlar xissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 27,5 foizini mikroqarzlilar va 16,3 foizini ipoteka kreditlari tashkil etgan.

Yil boshidan avtokredit va mikroqarz ajratish ipoteka kreditini ancha ortda qoldirib oyma-oy o'sib borgan hamda so'nggi oylarda biroz sekinlashgan (grafik).

Jami ajratilgan chakana kreditlar yo'nalishlar kesimida:

- avtokredit – 30,2 trln so'm;
- mikroqarz va overdraft – 21,1 trln so'm;
- ipoteka – 12,2 trln sŷm;
- aholi tadbirkorligi – 7,5 trln so'm;

- ta'lim – 1,6 trln so'm;
- boshqalar – 1,6 trln so'm.



Joriy yil birinchi chorak yakunlari bo'yicha banklarning jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar portfeli miqdori yil boshiga nisbatan 4,7 trln so'mga o'sib, 153,3 trln so'mni tashkil qilgan.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha:

- 60,2 trln so'mlik ipoteka (yil boshiga nisbatan o'sish - 3,4% yoki 2 trln so'm);
- 45,2 trln so'mlik iste'mol kreditlari (avtokredit bilan birga) (o'sish - 1,4% yoki 633 mlrd so'm);
- 26,7 trln so'mlik mikroqarz (o'sish - 9,1% yoki 2,2 trln so'm);
- 15,9 trln so'mlik tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun ajratilgan (yil boshiga nisbatan 419 mlrd so'mga yoki 2,6% ga kamaygan);
- 5,2 trln so'mlik ta'lim va boshqa kreditlar (o'sish - 5,3% yoki 263 mlrd so'm) qoldig'i mavjud. Ushbu yo'nalishda yetakchi banklar haqida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak:

Ipoteka-bank chakana kredit portfel qoldiqi 22,4 trln so‘mni tashkil qilgan xolda yetakchilikni saqlab qolmoqda. Birinchi chorakda bank chakana portfeli qariyb 1,2 trln so‘mga o‘sgan.

Жисмоний шахсларга ажратилган чакана кредитлар қолдиғи тўғрисида кредитлар турлари бўйича маълумот

млрд.сўм

Кўрсаткич номи	01.01.2024 й.	01.04.2024 й.	Фарқи
Жисмоний шахсларга ажратилган кредит қолдиғи	148 621	153 330	4 708,7
Ипотека кредитлари	58 177	60 180	2 002,5
Микроқарзлар	24 525	26 753	2 228,9
Истеъмол кредитлари	44 589	45 222	633,3
Таълим кредитлари	4 745	4 938	193,6
Тадбиркорликни ривожлантириш учун ажратилган кредитлар	16 395	15 976	-419,0
Бошқа кредитлар	191	260	69,5

So‘nggi yillarda chakana kreditlar berish bilan jadal shug‘ullanib kelayotgan Kapitalbank kredit portfeli esa (19,0 trln so‘m) yil boshiga nisbatan 12 mlrd so‘mga kamayishi kuzatilgan.

Ijtimoiy bankdan chakana bankka aylanishni maqsad qilgan Xalq banki portfeli yil boshiga nisbatan 696 mlrd so‘mga oshib, 16,4 trln so‘mga yetgan va birinchi uchlikdan o‘rin olgan.

Yana bir davlat banki O‘zmilliybank kredit portfeli joriy yil 1-aprel holatiga 15,1 trln so‘mni tashkil qilgan (1,3 trln so‘mga ko‘paygan).

XULOSA. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, korxonalar va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag‘larni tasarruf etish va to‘lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag‘lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko‘rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish

va boshqa xizmatlardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar yaratildi. Qolaversa juda ko'p tijorat banklari kesimida aholiga chakana xizmatlar ko'rsatish amaliyoti ko'rsatkichlari tobora oshib borayotgani tahlillarda o'z natijasini ko'rsatdi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Аликориев О. Тижорат банкларида молиявий хизмат турларини ривожлантириш юналишлари. икт. фан. ном. ... дис. автореф. – Тошкент, 2011. - 28 б.
2. Гончарук С. А. Институциональная аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. унт им. К.Л. Хетагурова - шахти, 2018. - 183 с
3. Efma-Infosys Finacle Innovation tadqiqoti, 2019 yil.
4. www.cbu.uz – Ўзбекистон Республикаси Марказий Банки Расмий сайти
5. <https://cbu.uz/uz/payment-systems/remote-banking-services/>